

**ADLIYA ORGANLARINING NORMA IJODKORLIGI FAOLIYATI:
TASHKILY VA HUQUQIY ASOSLARI.**

Matkarimova Muxayyo Maksudbekovna

Toshkent davlat yuridik universiteti
magistranti.

matkarimovamuxayyo@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8084879>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada huquq normalarini ishlab chiqish bosqichlari, qonunchilikdagi ziddiyatlar tushunchasining mohiyati, yuzaga kelish sabablari, salbiy oqibatlari, bartaraf etish usullari, huquq ijodkorligining qonunchilikdagi ziddiyatlarni hal etishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, Adliya organlarining norma ijodkorligi faoliyatining yangi va zamonaviy mexanizmlarini joriy etish davlat boshqaruvi organlari va idoralarning bu boradagi faoliyatini muvofiqlashtirish, bu jarayonga samarali va tizimli uslubiy rahbarlik qilish, huquqni bir xil qo'llash amaliyotini takomillashtirish masalalari atroflicha o'rganilgan.

Kalit so'zlar: normativ huquqiy hujjat, qonun ijodkorligi, norma ijodkorligi, davlat xizmatlari, qonun loyihasi, jamoatchilik nazorati, yuridik yordam, huquqni qo'llash amaliyoti.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida adliya organlari faoliyatini yanada takomillashtirish, shu jumladan tizimning norma ijodkorligi funksiyasini rivojlantirish yagona davlat huquqiy siyosatining elementi sifatida namoyon bo'lmoqda. Ma'lumki, huquq ijodkorligi jarayonida yangi huquq normalari ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Bunda huquq manbalarida birinchi navbatda, davlat hokimiyati organlari faoliyatining maqsadi, vazifalari va funksiyalarining mazmuni hamda huquqiy doiradagi muayyan ijtimoiy munosabatlarda huquq subyektlarining huquq va majburiyatlari o'z ifodasini topadi.

Shuning uchun ham huquq ijodkorligi – jamiyat va davlatning huquqiy ehtiyojlarini aniqlash va baholash, vakolatli subyektlarning normativ-huquqiy hujjatlarini belgilangan tartibda shakllantirish va qabul qilishni qamrab oluvchi jarayondir. Huquq ijodkorligining murakkab jarayon ekanligini quyidagilar orqali ko'rish mumkin:

1) huquqiy tartibga solishni talab etadigan ijtimoiy munosabat, vaziyat yoki jarayonni anglash, o'rganish va tahlil etish;



- 2) muayyan normativ-huquqiy hujjatni qabul qilish vakolatiga ega bo'lgan organ yoki mansabdor shaxs (subyekt)ni aniqlash;
- 3) qabul qilinishi nazarda tutilayotgan aktning shaklini tanlash;
- 4) tegishli protsedura doirasida normativ-huquqiy hujjatni tayyorlash, qabul qilish, unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki bekor qilish;
- 5) qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatni huquq subyektlari e'tiboriga yetkazish.

M.K.Najimovning fikriga ko'ra, qonunchilikdagi ziddiyatlar-bu muayyan turdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar o'rtasidagi qarama-qarshi va ziddiyatlardir.

N.I.Matuzov esa qonunchilikdagi ziddiyatlar tushunchasiga aynan bir xil yoki o'xshash ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi alohida normativ-huquqiy hujjatlar o'rtasidagi farqlar yoki qarama-qarshiliklar, shuningdek, vakolatli subyektlar tomonidan huquqni qo'llash va o'z vakolatlarini amalga oshirish jarayonida vujudga keluvchi qarama-qarshiliklar, deb ta'rif beriladi.

Huquq ijodkorligi qonunchilikdagi ziddiyatlarni bartaraf etishning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi. *A.S.Pigolkinning* fikricha, huquq ijodkorligi huquq normalarini yaratishga yo'naltirilgan davlat faoliyatining shakli bo'lib, amaldagi huquqni yagona va o'zaro muvofiq bo'lgan umummajburiy normalar tizimi sifatida shakllantirish va rivojlantirish jarayoni hisoblanadi.

A.P.Mazurenkovning yondashuviga ko'ra, huquq ijodkorligi deyilganda ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish uchun vakolatli subyektlar tomonidan huquq normalarini yaratish, o'zgartirish va bekor qilish kabilarni o'z ichiga oluvchi huquqni shakllantirishning yakuniy bosqichi tushuniladi.


M.M.Ergashevning fikriga ko'ra, huquq ijodkorligi amaliyotida professionalism tamoyilini qo'llashda bir qator qiyinchiliklar kelib chiqishi mumkin. Xususan, joriy qonunchilikda normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish jarayonida ishtirok etuvchi deputat va boshqa shaxslarga nisbatan qo'yiladigan talablar umumiy tusda bo'lib, bunda huquq ijodkorligi subyektiga xos bo'lgan kasbiy mezonlar nazarda tutilmagan. Ushbu holat qonun ijodkorligi jarayonida professionalism tamoyilining muayyan darajada deklarativ tusga ega ekanligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 8-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi 314-sonli tarixiy Farmoni bilan O'zbekiston SSR Adliya vazirligi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga aylantirildi. Vazirlar Mahkamasining 1992-yilning 12-noyabrida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Adliya



vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi 523-sonli qarori bilan vazirlik Nizomi tasdiqlandi. Mazkur qonun hujjatlarining mantiqiy davomi sifatida 2018-yilning 13-aprelida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"-gi 5415-sonli farmoni qabul qilindi. Adliya vazirligining maqsadi, ustuvor yo'nalishlari hamda strategik rivojlanish istiqbollari belgilangan mazkur farmonda adliya organlarini "Odilona qonunlarni qabul qilish, jamiyatda qonunga hurmat ruhini qaror toptirish — demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir" degan konseptual g'oyani hayotga tatbiq etishga qaratilgan yagona davlat huquqiy siyosati amalga oshirilishini ta'minlaydigan professional xizmatga aylantirish vazirlik faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab qo'yildi. Huquq ijodkorligi jamiyat va davlatning huquqiy ehtiyojlarini aniqlash va baholash, vakolatli subyektlarning huquqiy hujjatlarini belgilangan tartibda shakllantirish va qabul qilishni qamrab oluvchi jarayondir. Ma'lumki, davlat va huquq nazariyasida huquq ijodkorligi deganda, vakolatli davlat organlarining normativ-huquqiy aktlarini yaratish, ularga o'zgartirish kiritish yoki ularni bekor qilishga qaratilgan faoliyat tushuniladi. Huquq ijodkorligi jarayonida yangi huquqiy normalar ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Bunda, birinchi navbatda, davlat faoliyatining belgilangan vazifalari huquqda o'z ifodasini topadi. Binobarin, davlatning vazifasi, tipi, davlat hokimiyatini amalga oshirish va tashkil etish shaklidan qat'i nazar, huquq ijodkorligi davlat tomonidan amalga oshiriladi. Shu jihatdan huquq ijodkorligi jamiyat va davlatning huquqiy ehtiyojlarini aniqlash va baholash, vakolatli subyektlarning huquqiy hujjatlarini belgilangan tartibda shakllantirish va qabul qilishni qamrab oluvchi jarayondir. Ushbu ta'rifda quyidagi muhim jihatlarga urg'u berilgan, ya'ni: huquqiy tartibga solishni talab etadigan holat yoki jarayonni anglash, o'rganish va tahlil etish, u yoki bu huquqiy akti qabul qilish vakolatiga ega bo'lgan organi (sub'ektini) aniqlash, qabul qilinishi mo'ljallanayotgan aktning shaklini tanlash, tegishli protsedura doirasida huquqiy akti tayyorlash, qabul qilish yoki o'zgartirish. Albatta, sanab o'tilgan bu jihatlar o'zaro bog'liq va yaxlit jarayondir.

Quyida xorijiy davlatlarning norma ijodkorligiga faoliyati xususida tahlillarni ko'rib chiqamiz. Belorussiya Respublikasi Vazirlar Kengashining 2001-yil 31-oktabrda 1605-sonli qarori bilantasdiqlangan "Belorussiya Respublikasi Adliya vazirligi to'g'risida"gi Nizomning 6.1 kichik bandiga ko'ra, Adliya vazirligi Belorussiya Respublikasi Prezidenti, Milliy majlis, Vazirlar



Kengashining topshirig'i va o'zining tashabbusi bo'yicha qonunchilik va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqadi.

Qozog'iston Respublikasining 2002-yil 18-martdagi "Adliya organlari haqida"gi Qonunining 15-moddasiga ko'ra, adliya organlari tomonidan qonun loyihasi ishlari va normativ-huquqiy hujjatlarning loyihalarini ishlab chiqish amalga oshiriladi.

Germaniya Federal Adliya va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish vazirligi tuzilmasidagi IB Departament (Konstitusiyaviy va ma'muriy huquq, xalqaro va Evropa huquqi) xalqaro-huquqiy shartnomalarni ishlab chiqish va kelishishda ishtirok etadi. Shuningdek, mazkur IB Departament BMT va Yevropa Kengashi yo'nalishi bo'yicha belgilangan shartnomalarni tayyorlash va amalga oshirishga javob beradi.

Fransiya Adliya vazirligi tizimida norma ijodkorligi faoliyati bilan shug'ullanuvchi bir nechta tuzilmalar bo'lib, shular jumlasidan Fuqarolik ishlari bo'yicha boshqarmasi konstitusiyaviy huquq, ma'muriy masalalar, fuqarolik huquqi va fuqarolik prosessi, korporativ huquq va savdo huquqiga aloqador bo'lgan qonunlar va normativ hujjatlar loyihalarini tayyorlaydi. Finlandiya Adliya vazirligi xodimining asosiy majburiyatlaridan biri, Hukumat qonun loyihalarini ishlab chiqish hisoblanadi. Sanab o'tilgan xorijiy davlatlarda norma ijodkorligi bir-biridan farq qilsada, o'xshash jihatlari ham yo'q emas. Huquq ijodkorligining asosiy negizini fuqarolarni huquq va erkinliklarini himoya qiladigan qonun loyihalarini ishlab chiqish jarayoni tashkil qiladi.

Fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi qonunida ham "norma ijodkorligi" tushunchasi va ushbu faoliyatni amalga oshiruvchi subyektlar doirasi, norma ijodkorligi faoliyatiga "uslubiy rahbarlik" va mazkur faoliyatni muvofiqlashtirishning aniq mexanizmini nazarda tutuvchi normalar belgilanishi maqsadga muvofiq. Germaniya Adliya va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish federal vazirligining muhim vazifalaridan biri boshqa vazirliklar tomonidan ishlab chiqilgan qonun loyihalarini konstitutsiyaviy qonunlar va huquqiy tizimga muvofiqligi nuqtai nazaridan huquqiy ekspertizadan o'tkazish hisoblanadi.¹ Koreya Respublikasi Adliya vazirligining Huquqiy maslahat boshqarmasi tomonidan taklif etilayotgan qonunchilikni ko'rib chiqish, qonunlarni sharhlash, shuningdek fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish amalga oshiriladi.² Xorijiy mamlakatlar adliya organlarining norma ijodkorligi sohasidagi faoliyati muxtasar tahlilidan xulosa

¹www.bmjv.de (Germaniya Adliya va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish federal vazirligi veb-sayti)

² (<http://www.moj.go.kr> (Janubiy Koreya Adliya vazirligi veb-sayti)).

qilib, adliya organlarining ushbu sohadagi faoliyatini rivojlantirish yuzasidan quyidagilar takliflar qilinadi: Adliya vazirligi to'g'risidagi Nizomga muvofiq, vazirlik huquq ijodkorligi faoliyatini muvofiqlashtirish hamda samaradorligini oshirish sohasida davlat organlari va tashkilotlarining huquq ijodkorligi masalalari bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtiradi va uslubiy rahbarlikni amalga oshiradi. Biroq, vazirlik tomonidan davlat organlari va tashkilotlarining huquq ijodkorligi faoliyatiga uslubiy rahbarlikni amalga oshirishiga oid aniq mexanizm qonun hujjatlarida aks etmagan. Shuni hisobga olgan holda, Adliya vazirligi tizimida Norma ijodkorligini metodik ta'minlash va ilmiy-texnik ekspertiza boshqarmasini tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mazkur boshqarmaning tashkil etilishi norma ijodkorligini amalga oshiruvchi tuzilmalarning sifatli va muayyan tizimda faoliyat olib borishiga asos bo'ladi. Shuningdek, mamlakatimizda huquqni muhofaza qiluvchi organlari to'g'risida qonunlar qabul qilingan bo'lib, ularning huquqiy maqomi qonun doirasida belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi, "Prokuratura to'g'risida"gi, "Davlat xavfsizlik xizmati to'g'risidagi", "Ichki ishlar organlari to'g'risida" gi qonunlar mazkur huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlardir. Biroq, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va hududiy adliya organlarining huquqiy maqomini belgilovchi qonun qabul qilinmagan. Adliya organlari va muassasalarining amalga oshirilayotgan islohotlardagi o'rnini yanada oshirish va bundan-da takomillashtirilgan adliya tizimini shakllantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining «Adliya to'g'risida»gi qonunini qabul qilish maqsadga muvofiq. Xulosa qiladigan bo'lsak, jamiyatda huquq ijodkorligi jarayonining demokratizm, insonparvarlik va ilmiy asoslanganlik kabi tamoyillarga asoslangan holda amalga oshirilishi qonunchilikda yuzaga keladigan ziddiyatlarni oldini oladi va mavjud muammo va ziddiyatlarni tezkor hamda samarali usulda hal etish imkoniyatini yaratib beradi. Qonunchilikdagi ziddiyatlarni huquq ijodkorligi yordamida bartaraf etish ziddiyatli huquq normalarini bekor qilish, amaldagi huquq normasiga o'zgartirishlar kiritish, shuningdek, yangi huquq normasini qabul qilish orqali amalga oshiriladi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиши керак. Т. Ўзбекистон, 2017 – 104 б.
2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз. Т. Ўзбекистон. 2017 – 488 б.



3. “Қонун ижодкорлиги ва қонунчилик техникаси: назария ва амалиёт муаммолари” Илмий-амалий семинар материаллари, Илмий-амалий семинар материаллари, Масъул муҳаррир: Ф.Ҳ.Отахонов, 2005 йил 30 июнь – Т.: 2005. - 171 б.
4. “Қонун ҳужжатлари мониторинги: назария ва амалиёт масалалари”. Илмий-амалий семинар материаллари, Масъул муҳаррир: Ф.Ҳ.Отахонов, 2006 йил 24 март – Т.: 2006. - 377 б.
5. Авакьян С.А. Федеральное Собрание России: перспективы совершенствования организации и деятельности // Вестник Московского университета. Серия 11, право. – 2002. - № 2.- С. 5-6.
6. Адилкариев Х.Т., Рустамов П.А. Научно-информационное обеспечение законотворчества в Республике Узбекистан // Хуқук – Право – LAW. 2000. № 3. - С. 4-11
7. Иванов К. К. Особенности законотворческого процесса в зарубежных странах (на примере Франции) // Молодой ученый. – 2012. – №3. – С. 291-294.
8. www.lex.uz
9. www.norma.uz

